

SUR RANGLI QORAKO'L QO'YLARI AVLODLARINING TIRIK VAZN DINAMIKASI

A.B.Mustafoeva

magistr Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

E.S.Shaptakov

q-x.f.d., professor Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sur rangli qorako'l qo'ylar avlodlarida tirik vazn o'sish ko'rsatkichlarining turli yosh davrlarida o'zgarish dinamikasini o'rganish natijalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *qorako'l qo'ylari, qo'zilari, gul tiplari, rang, rangbaranglik tirik vazn, dinamika.*

Аннотация. *В статье описаны результаты изучения динамики изменения показателей роста живой массы в разные возрастные периоды в поколениях черных каракульских овец.*

Ключевые слова: *каракульские овцы, ягнята, цветочные типы, окраска, разнообразие, живая масса, динамика.*

Kirish. Ma'lumki, qishloq xo'jalik hayvonlari tirik vaznining o'zgarishi, ularning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liq xususiyatlar hisoblanadi. Hayvonlarda o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari organizmning biologik xususiyatlarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, qo'ylarda tirik vazn go'sht mahsuldorligini ko'payish yoki kamayishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda ayrim qo'ychilik mahsuloti turlarining iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, agar, oldin qorako'l terilari ishlab chiqarish daromadning 80 foizini bergan bo'lsa, hozirgi paytda qo'y go'shti iqtisodiy jihatdan ahamiyatli bo'lib, uning barcha turdagi mahsulotlarning umumiy daromadidagi ulushi 70 foiz va undan ko'proqni tashkil qilmoqda [2, 3].

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning cho'l va yarim cho'l mintaqalari sharoitida urchitiladigan sur rangli qorako'l qo'ylar avlodlarining tirik vazn dinamikasini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar "Qarnab ota" MChJda urchitilayotgan sur qorako'l qo'ylarida olib borilib, bunda olingan avlodlarning tug'ulgandan 4,0 oylik yoshiga qadar bo'lgan tirik vazn ko'rsatkichlari o'rganildi. Ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida ishlov berildi [1].

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlar davomida turli rangbarangliklardagi va gul tiplaridagi sur qorako'l qo'ylarining o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari o'rganildi.

Ushbu ko'rsatkichlarni o'rganish kumushsimon va olmos rangbaranglikka mansub qo'zilarida amalga oshirildi. Tadiqotlar natijasida olingan malumotlar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1- jadval

**Turli rangbaranglik va gul tiplaridagi sur qorako'l qo'zilarining
tirik vazn dinamikasi**

Rangbarangliklar	n	Tirik vazn, kg			
		Tug'ilganda		4,0 oylikda	
		X±Sx	C _v	X±Sx	C _v
Olmos					
Yarim doira	27	3,7±0,03	10,02	24,0±0,58	14,0
Qovurg'asimon	27	3,6±0,03	10,4	25,4±0,41	9,74
Yassi	27	3,6±0,03	12,6	24,56±0,67	15,3
O'sik gul	27	3,9±0,05	11,4	26,12±0,56	11,8
Kumushsimon					
Yarim doira	27	3,5±0,02	7,1	24,7±0,40	9,33
Qovurg'asimon	27	3,7±0,02	7,1	25,6±0,41	9,73
Yassi	27	3,6 ±0,09	15,7	25,4±0,38	8,68
O'sik gul	27	4,1±0,06	13,7	26,4±0,58	12,3

Keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan barcha guruhlarda tirik vaznning tug'ilganda va 4,0 oylik yosh davrida kumushsimon rangbaranglikdagi qo'zilarida olmos rangbaranglikdagi qo'zilarga nisbatan biroz yuqori bo'lish tendensiyasini kuzatish mumkin. Bu holat tug'ilgan paytda 0,2 kg ni, 4,0 oylikda 0,7 kg ni tashkil etdi.

Olingan ma'lumotlardan turli rangbaranglik va gul tiplaridagi sur qorako'l qo'zilarining tug'ilgandagi tirik vazni bo'yicha o'sik gul tipidagi qo'zilar boshqa tipdagi tengqurlariga nisbatan ma'lum darajada yuqori bo'lganligini, 4,0 oylik davrida kumushsimon rangbaranglikdagi qo'zilar ko'rsatkichlarining biroz farq qilganini qo'rish mumkin.

Xulosa. Bajarilgan tadqiqot natijalari bo'yicha xulosa qilish mumkinki, yarim doira, qovurg'asimon va yassi tiplarga mansub qo'zilar tirik vaznining standart talabida bo'lishi ularning ham yaxshi rivojlanish xususiyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi. Tirik vaznning o'sishini baholash keyinchalik ularning sog'lomligini, nasliy xususiyatlarini namoyon eta olish qobiliyatini ko'rsatuvchi kriteriyalardan hisoblanadi. Avlodlarining gul tiplari ularning maxsuldorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi va bundan seleksiya ishida foydalanishda inobatga olish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Плохинский Н.А. Руководство по биометрия для зоотехников. Маскво. 1969. 256 стр.
2. Tangirov A. va bosh. Qorako'lichilik qo'yi majmuasi uni modernizatsiyalash. Toshkent. 2017. 145 str.
3. Xatamov A.X., Nasimova Sh. Qoraqalpoq sur qorako'l qo'zilarining tug'ilgandagi tirik vazn ko'rsatkichlari. "Cho'l yaylov chorvachiligining rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining 90 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2020 yil 10-11 dekabr., 35-37 bet.
4. Ibragimjanovich, T. I., & Kurbanbay o'g'li, X. J. (2023). O 'RTA TA'LIM O 'QUV YURLARIDA VA MUDOFAA-SPORT SOG 'LOMLASHTIRISH OROMGOHLARIDA OMMAVIY-MUDOFAA ISHLARINI TASHKILLASH VA O 'TKAZISH USLUBIYOTI. World of Science, 6(5), 631-636..
5. Ibragimjanovich, T. I., & Kurbanbay o'g'li, X. J. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI VA OMMAVIY-MUDOFAA ISHLARINI TASHKILLASH VA O 'TKAZISHDA HARBIY TA'LIM RAHBARINING VAZIFALARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 1202-1206.
6. Ibragimjanovich, T. I., Komiljon o'g'li, O. D., & Raxmatjon o'g'li, X. D. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIXIY, MA'NAVIY VA MADANIY MEROSIMIZNING O 'RNI VA ROLI. Scientific Impulse, 1(9), 1425-1427.
7. Ulug'bekovich, M. A., & Nodirjon o'g'li, I. A. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING TUTGAN O'RNI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 7-8.
8. Hamrayeva, O. F., & Irodaxon, M. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA KOMUNIKATIV KOMPITENTLIKNI TAKOMILLASHTRISH. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 9-12.